

ULUG'NOR CHO'L HUDUDI LANDSHAFTLARINING ANTROPOGEN OMILLAR TA'SIRIDA SODIR BO'LAYOTGAN O'ZGARISHLARI

Uktamov Urayimjon Shavkatjon o'g'li

Andijon davlat pedagogika instituti katta o'qituvchisi

Xusanova Mashxura Erkinjon qizi

Andijon davlat pedagogika instituti talabasi

Islomova Ozoda Sherali qizi

Andijon davlat pedagogika instituti talabasi

Annotatsiya. *Ushbu maqola Ulug'nor cho'l landshaftlarining antropogen omillar ta'sirida o'zgarishlari yoritilgan. Shuningdek, Ulug'nor cho'l landshaftlarining insonlar tomonidan o'zlashtirilishi natijasida sodir bo'layotgan cho'llanishlar haqida ham ma'lumot keltirilgan.*

Kalit so'zlar. *Ulug'nor tumani, cho'l hududi, antropogen landshaftlar, qumloq tuproqlar, gil tuproqlar, qishloq xo'jaligi yerlari.*

KIRISH

Hozirgi kunda insoniyatning globallashuv jarayoni hisobiga tabiiy landshaftlarning maydoni qisqarib, o'zgarishlarga uchrab, yoki butkul yangi ko'rinishga ega bo'lmoqda. Qadimda inson qishloq xo'jalik faoliyati bilan bundan qariyb yetti ming yil ilgari ham shug'ullanganligi, yurtimizda esa besh ming yillik tarixga borib taqalishi arxeologik izlanishlar davomida aniqlangan. Yer landshaft qobig'ining qishloq xo'jalik maydonlari hisobiga o'zgarishga uchrashi ayniqsa XX asrda juda tez rivojlandi. Yer yuzida inson paydo bolganidan buyon tabiatga ta'sir ko'rsatgan holda, muayyan yo'nalishda o'zgartiradi va har hil landshaftlar ko'rinishi yuzaga keladi. Inson xo'jalik faoliyati tufayli tabiatga ta'sir ortib borarkan, antropogen ta'sir ba'zi shakllarda esa antropogen yuk ham deb atala boshlandi. Landshaftlarning o'zgarish darajasi ko'rsatkichi antropogen ta'sirning katta-kichikligi, ularning tabiiy xususiyatlari, morfologik shakllari kabilar bilan bog'liq hisoblanadi.

Asosiy qism. Hozirgi kunda Ulug'nor cho'l hududi landshaftlarining insonlar tomonidan o'zlashtirilishi natijasida sodir bo'layotgan cho'llanish jarayoni vujudga kelmoqda. Ulug'nor cho'l hududi landshaftlari o'zgarishlarining asosiy sabablari tabiiy va antropogen omillar, ya'ni inson faoliyati hal qiluvchi ahamiyatga ega. Ulug'nor cho'l hududi landshaftlari o'zgarish jarayonlariga ta'sir etayotgan antropogen omillar bir necha guruhlarga bo'lishimiz mumkin. Eng asosiysi esa iqtisodiy va ijtimoiy omillardir. Har qanday sharoitda ham insonning tabiatga ta'sirida ma'lum me'yorga rioya qilinishi kerak. Aks holda, tabiatda minglab yillar davomida shakllangan muvozanat buziladi va qashshoqlanish boshlanadi. Ulug'nor cho'l hududi landshaftlarini o'zlashtirilishiga asosiy sabab, qo'riq yerlarni xo'jalik jixatdan o'zlashtirish va sug'orish, ularni qishloq xo'jaligida foydalanishga kiritish tuman iqtisodiyotini rivojlanishida muhim ahamiyatga ega edi.

Yangidan o'zlashtirilib sug'oriladigan dexqonchilik barqarorligi kafolatlangan muttasil mo'l hosil olish birinchi navbatda fan va texnika yutuqlaridan foydalanishni taqozo etadi.

Ulug'nor cho'l hududi landshaftlari ham insonlar ta'sirida o'zgarib kelmoqda. Hozirgi kunda Ulug'nor cho'l hududidagi tabiiy landshaftlar insonlar tomonidan o'zlashtirilishi natijasida antropogen landshaftlarga aylanmoda. Antropogen landshaftlar hududiy yondosh bo'lgan boshqa landshaftlaridan komponentlarining mutlaqo o'zgartirilganligi, doimiy ravishda boshqarilish xususiyatlari bilan farq qiladi. Ularda komponentlarning o'zaro aloqadorligi ham tabiiy landshaftlardagi komponentlarning o'zaro aloqadorligiga qaraganda o'ziga xos ravishda sodir bo'ladi. Ular boshqa landshaftlardan faqat geografik xususiyatlari bilan emas, balki ichki strukturasining murakkabligi, strukturali-dinamik rivojlanishi bilan ham farq qiladi. Hozirgi kunda Ulug'nor cho'l landshaftlarining o'zgarishga asosiy omil bu iqtisodiy omillar hisoblanadi. Iqtisodiy omillar Ulug'nor cho'l hududining kengayishiga eng kuchli ta'sir ko'rsatib kelmoqda. Landshaftlarning antropogen o'zgarishi, kengayib va rivojlanib borishiga ko'plab oqibatlar, cho'l hududi landshaftlarini qishloq xo'jaligi maqsadidan foydalanish asosida o'zlashtirish va ulardan foydalanishning samarasiz usullaridan foydalanish juda katta ta'sir etib kelmoqda. Qumli cho'l landshaftlar hududini o'zlashtirish natijasida, katta maydonlardagi tuproqlar xolatining o'zgarishi, bu esa tuproq qoplaminig tarkibiy (mexanik va organik) qismlariga buzilishiga olib keladi. Buning natijasida Ulug'nor cho'l hududida bir qancha tuproq turlari hosil bo'lgan. Masalan:

1. Qumloq tuproqlar: Bu tuproqlar ko'pincha tumanning pastroq yerlarida uchraydi. Qumloq tuproqlar suvni mukammal saqlash va ozuqa moddalarini saqlash qobiliyati bilan mashhur bo'lib, ularni qishloq xo'jaligi uchun juda mos keladi. Ularning xususiyatlari va turli xil ekinlarni qo'llab-quvvatlash qobiliyati ularni dehqonchilik faoliyati uchun qimmatli qiladi.

2. Gil tuproqlar: Ulug'norning ayrim joylarida gil tuproqlar ko'p. Bu tuproqlar yuqori suvni ushlab turish qobiliyatiga ega, ammo quruq bo'lganda juda zich va suv o'tkazmaydigan bo'lishi mumkin. Namlikni ushlab turish qobiliyati tufayli ular sholi etishtirish kabi o'ziga xos qishloq xo'jaligi amaliyotlari uchun mos bo'lishi mumkin.

3. Qumli tuproqlar: Tumanda qumli tuproqli hududlar ham mavjud. Qumli tuproqlar yaxshi drenajga ega, ammo suv va ozuqa moddalarini kamroq ushlab turadi. Ularning bahorda tezda isinish qobiliyati, agar ehtiyotkorlik bilan boshqarilsa, ularni erta mavsumiy ekinlarga moslashtirishi mumkin.

4. Loy tuproqlar: O'rtacha drenaj va ozuqa moddalarini yaxshi saqlaydigan loy tuproqlar ham Ulug'nor tumanidagi tuproq mozaikasining bir qismidir. Ular turli xil ekinlarni qo'llab-quvvatlashi mumkin va ko'pincha ularning unumdor xususiyatlari uchun qadrlanadi.

5. Unumdor tuproqlar: unumdor tuproqlarning mavjudligi mintaqaviy landshaftning muhim jihati hisoblanadi. Urug'li tuproqlar ko'pincha zarur oziq moddalar bilan ta'minlash va o'simliklar o'sishi uchun qulay sharoitlar yaratish orqali boy o'simliklarni qo'llab-quvvatlaydi.

Cho'l landshaftlarini o'zlashtirish texnogen landshaftlarning kengayishiga ham yordam beradi. Masalan sanoat korxonalar, aholi punktlari, transport yo'llari, elektr uzatish liniyalari tarmog'i (turli yo'llar, quvurlar, elektr uzatish liniyalari) va boshqalar. Ko'chib yuruvchi

texnika va transport vositalari bu yerda tuproq eroziyasi o'choqlarining paydo bo'lishiga sabab bo'ladi. Sanoat majmualari va aholi punktlari atrofidagi katta maydonlarda cho'l landshaftlarining ishlab chiqarish chiqindilari va maishiy chiqindilar bilan ifloslanishi tobora ortib bormoqda. Texnogen landshaftlar va ularning ta'sir natijasida tabiiy ekotizimlarning maydonini kamaytiradi, bu esa o'zlashtirilayotgan hududlardagi biologik xilma-xillikning kamayishiga olib keladi.

Ulug'nor cho'l hududi landshaftlarining qishloq xo'jaligi maqsadlarida o'zlashtirilishi hududlarida tuproqni qayta ishlash va ekinlarni yetishtirishning agrotexnik usullariga to'g'ri rioya qilmasdan yerlarni o'zlashtirish va sug'orish tuproqlarning sho'rlanishiga olib kelmoqda. Ulug'nor cho'l landshaftlarida joylashgan ko'plab sug'orish inshootlari qishloq xo'jaligining irrigatsiya usullari natijasida tuproqning shamol va suv eroziyasi jarayonlari rivojlanib bormoqda. Sug'oriladigan yerlarning periferiyasi bo'yicha (shu hududning atrofi) kollektor-drenaj suvlarining tashlanishi natijasida landshaftlarning botqoqlanishi va tuproqlarning sho'rlanishiga olib keladi.

Bugungi kunda Ulug'nor cho'l landshaftlari qurg'oqchil zonalarning yaylov mintaqasida cho'llanishning ortib borishi va asosiy omili esa chorva hayvonlarining muttasil ko'p boqilishi ham sabab hisoblanadi. O'simlik qoplaminin siyrakligi va cho'l fitosenozlarining past mahsuldorligi, o'tlayotgan hayvonlar tomonidan o'simliklarning sezilarli darajada nobud qilishi hududlardagi landshaftlarning o'zgarish jarayonini tezlashtiradi. Ulug'nor cho'l landshaftlarining o'zgarishiga yana bir asosiy sabablardan ijtimoiy omillar ham muhim ro'l o'ynaydi. Ulug'nor cho'l landshaft hududlariga yaqin joylashgan aholi punktlaridagi aholi, turli turdagi yoqilg'i (ko'mir, gaz va boshqalar) bilan kam taminlanganligi sababli cho'l landshaftlarida tarqalgan turli o'simlik resurslaridan yoqilg'i sifatida foydalanishga majbur bo'lmoqda. Shu bilan birga, cho'l hududi landshaftlarining nafaqat daraxtsimon (daraxt va buta) o'simliklari, balki yarim buta (shuvoq) ham katta hajmda yo'q qilinmoqda. Bugungi kunda cho'l hududi landshaftlarida tarqalgan tuproqlarni himoya qilish funksiyasiga ega bo'lgan cho'l daraxt va buta o'simliklarining yo'q qilinishi deflyatsiyaning rivojlanishiga va hududning tobora qurib ketishiga olib kelmoqda.

Xulosa. Bugungi kunda antropogen omil, tabiiy landshaftlarning shakllanishi hamda o'zgarishida bosh omil hisoblanadi. Aholi sonining ko'payishi va ishlab chiqarish texnikalarining takomillashishi sababli uning roli ortib boradi. Inson ehtiyojini tabiatdan oladi, jamiyat bunga muhtoj hamda tabiiy muhit esa bunga munosabatini albatta bildiradi. Landshaftlarning kichik bir qismini o'zgarishga uchrashi landshaft qobig'ining ham o'zgarishiga olib kelmoqda. Landshaft deb-o'zaro tasirda bolgan tabiiy va antropogen komponentlarning nisbiy birligi ifodalanadigan, shuningdek kichik taksonomik birlikdagi komponentlar hamda inson tasirida bo'lgan vujudga kelishiga ko'ra bir xil tabiiy geosistemasidir. Landshaft nafaqat ilmiy tadqiqot obyekti, balki inson faoliyatining obyekti ham hisoblanadi. Chunki, landshaftlar - tabiiy resurslar mavjud va resurslar qayta tiklanishi mumkin bo'lgan hamda genofond saqlanadigan tabiiy sistemadir. Insonning hayoti va faoliyati kechadigan muhit, tabiiy laboratoriya va estetik idrok qilish manbaidir. Ulug'nor

cho'l landshaftlari tabiatidan foydalanishning huquqiy jihatlari yer, suv, yer osti boyliklari, o'simlik va hayvonot dunyosi tabiatini muhofaza qilish, cho'llanish jarayonini oldini olish uchun chora tadbirlar ishlab chiqish va ularning bajarilish nazoratini kuchaytirish lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ulug'nor tumani hokimligi.
2. <https://www.andijan.uz/uzb/xokimliklar/ulugnor.shtml> — (wayback machine saytida 29-sentabr 2015-yil sanasida arxivlangan) andijon viloyati hokimligi sayti
3. 1946-1980-yillarda markaziy farg'ona cho'llarining andijon viloyati hududlarida yangi paxtachilik tumanlarining tashkil topishi Abdullayev Ravshanjon Raxmonali o'g'li Namdu 2-bosqich mustaqil izlanuvchi.
4. Markaziy Farg'ona cho'l landshaftlarining antropogen omillar ta'sirida sodir bo'layotgan o'zgarishlari. Uktamov Urayimjon Shavkatjonovich Andijon davlat universiteti